

**XALQARO TEMIR YO‘L TASHUVLARINING IQTISODIY
SAMARADORLIGINI BAHOLASH**

Nurxodjaeva X. X.

*Тошкент Давлат “Узтемирйўлийўловчи” маҳаллий алоқаларда
йўловчиларга хизмат кўрсатиш филиали бош бухгалтери*

Izoh-Iqtisodiyotning globallashuvi va tashqi aloqalarni rivojlanishini amalga oshirish jarayoni transport xizmatlari sifatini yaxshilashga, yuk va yo‘lovchilar oqimini rivojlantirishga yangicha yondoshuvni talab etadi. Ushbu holat iqtisodiyotning ko‘p sohalariga ta‘sir ko‘rsatadi, shu xisobda davlat iqtisodiyotida strategik muhim va yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan transport tizimini yaratadi.

Tayanch so‘zlar -iqtisodiyot, transport, xalqaro tashuvlar, globallashuv, tarif, milliy iqtisodiyot, strategiya

ABSTRACT--*The relevance of the study lies in the fact that the Republic’s foreign economic relations depend on the development of international transport corridors, increasing the efficiency of international routes, and increasing export-import operations. The purpose and objectives of the study are to identify the features of the development of multimodal routes, the identification of optimal transport corridors. The subject of the study is the study of transport corridors by expanding international freight traffic. The research methodology is based on the application of comparative sampling methods, economic-analytical and export methods. Keywords--develop international transportation in the Republic of Uzbekistan*

Xalqaro transport koridorlari orqali tashuvlar samaradorligini oshirish iqtisodiyot rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitda xalqaro iqtisodiy aloqalar rivojlanishining asosiy tendensiyasi ularning globallashuvidir. Ushbu holat iqtisodiyotning ko‘p sohalariga ta‘sir ko‘rsatadi, shu xisobda davlat iqtisodiyotida strategik muhim va yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan transport tizimini yaratadi.



Ma'lumki, transport milliy iqtisodiyotning bazoviy tarmog'ini hisoblanadi. Uning rivojlanish darajasi va samaradorligi barcha sanoat tarmoqlarining rivojlanishi va o'zaro faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiyotning globallasuvi va tashqi aloqalarni rivojlanishini amalga oshirish jarayoni transport xizmatlari sifatini yaxshilashga, yuk va yo'lovchilar oqimini rivojlantirishga yangicha yondoshuvni talab etadi. Tashqi savdo xajmining oshishi davlat iqtisodiyotida barcha transport xizmatlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Tovar eksporti mamlakat rivojlanishida qanday muhim bo'lsa, transport xizmatlari eksportini kengaytirish ham shunday zarur hisoblanadi. Transport xizmatlari eksportini rivojlantirish O'zbekiston temir yo'llari orqali tashiladigan yuklarni jaxon bozorlariga olib chiqish ulushini oshiradi; transport tizimining tranzit potentsiali (imkoniyatlari) dan foydalanishni yanada yaxshilaydi va b. Temir yo'l transporti mamlakat transport majmuasining asosini tashkil qiladi va katta iqtisodiy, siyosiy hamda xavfsizlikni ta'minlash ahamiyatiga ega bo'lib zimmasiga yuklar oqimining katta qismini uzoq masofaga tashib berish vazifasi yuklatiladi va tashuvlarga bo'lgan ehtiyojni xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarda qondiradi.

Fikrimizcha, vaqt o'tishi bilan tashuvlarni temir yo'l orqali uzoq va o'rta masofalarga amalga oshirish iqtisodiy jihatdan eng samarali usul bo'lib qoladi. Yuk tashuvlarini o'rta masofaga bajarishda temir yo'l transporti avtomobil va dengiz transporti bilan raqobatlashadi. Temir yo'l transporti katta hajmli yuklarni uzoq masofaga tashishda samaraliroq xisoblanadi.

Temir yo'l transportining samaradorligi iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ishlab chikarishni yangilanishi, temir yo'l tashuvlariga talabning o'sishi, tuzilmaviy islohotlarning borish natijalari, O'zbekiston halqaro transport koridorlari uchastkalaridan samarali foydalanish bilan belgilanadi.

Tashqi savdo aloqalarining bugungi kunda yuqori darajada o'sishi tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligiga transport omili ta'sirini jadallashtiradi.

Ayrim tovarlar tashqi savdosi qiymatida transport xizmatlarining ulushi 40% dan ziyodroqni tashkil qiladi.



Shu sababli mamlakat transport tizimidan oqilona foydalanish, tashuvlarning progressiv, zamonaviy turlarini tadbiq etilishi transport xarajatlarini qiskarishi va tashqi savdoni rivojlanishiga va samaradorligining oshishiga olib keladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda transport xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi, qoida bo'yicha, tashqi yo'nalishlarni tanlash, transport turi, tashish uslubi, halqaro aloqalar variantlarining rivojlanishi orqali aniqlanadi. Yuqorida qayd etilgan omillardan tashqari iqtisodiy samara aniqlanishida xalqaro aloqalarni rivojlantirish variantlari ham inobatga olinishi zarur.

Samaradorlikni aniqlashda mijozlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, egiluvchan sharoitga moslashgan xizmatlar, va faoliyati davomida xarajatlarni tejash imkonini beradigan mexanizmlarni qo'llagan holda yondoshish talab etiladi. Tashishning u yoki bu variantining samaradorligini aniqlash asosiy tashuvchini tanlashda muhim tamoyil hisoblanadi. Bunda faqat tashish xarajatlarini taqqoslash bilan chegaralanmasdan, transport xizmatlarining sifati (tezkor, kafolatli, saqlangan, "aniq vaqtda" yetkazib berishni kompleks ravishda bajarish, "eshikdan- eshikgacha"), xavfsizlik darajasi va transportning ekologik jihatdan talabga javob berishini ham hisobga olish zarur va b.

Zamonaviy sharoitda xalqaro yuk va yo'lovchilarni tashish va transport xizmatlari bozorining normal holatda faoliyat yuritishi, transport ishlab chiqarish moddiy- texnik bazasini mustahkamlash, investitsion faoliyatni jadallashtirish, samarali innovatsion siyosatni olib borish, qonunchilik- xuquqiy va normativ bazani mustahkamlash orqali amalga oshiriladi. Yuqorida taklif etilgan tadbirlar tizimi barcha davlat organlari, xudud rahbarlari, transport tarmog'i rahbarlari va harakat tarkibi egalarining o'zaro muvozanatli hatti- harakatlari asosida amalga oshadi. Shu bilan birga, qo'l ostidagi resurslardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish hamda ishlab chiqarish va intellektual potentsialdan va transport infratuzilmasidan samarali foydalanish muhim o'rin tutadi. Xalqaro aloqalar orqali yuk tashuvlarining iqtisodiy samaradorligi (E) ni hisoblash uchun olingan natijalar tashuvlarning barcha jarayonlaridagi xarajatlar bilan solishtiriladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$E = T_{sof} / X_q * K_{vq} , (1)$$



Bu yerda T_{sof} - tovar eksportidan tushgan sof tushum;

X_q - ishlab chiqarishga, transportirovkalashga, soliq to'lovlari, shartnomalarni vaqtida bajarilmaganligiga to'lovlarni qoplashga ketgan xarajatlar yig'indisi;

K_{vq} - valyuta tushumlarining qadirsizlanishi.

Tashishdan olingan sof tushum quyidagi ko'rsatkich orqali aniqlanishi mumkin: $T_s = S * Q_x - (Z_p + Z_n + Z_t) * Q_x$, (2)

Bu yerda s - tovar birligi uchun ishlab chiqaruvchining narxi;

Q_x - Shartnoma bo'yicha tovar xajmi, tovar birligida;

Z_p - ishlab chiqarish xarajatlari, tovar birligida;

Z_n - soliq to'lovlari;

Z_t - transportirovkalash xarajatlari.

Barcha xarajatlar yig'indisi quyidagicha aniqlanadi:

$$Z_e = Z_p + Z_n + Z_t + U + \Delta Z_{mj}; \quad (3)$$

Bu yerda Z_{mj} - me'yordan tashqari zahira, qo'shimcha vositalarni yollash xarajatlari;

Bitim va shartnomalarni vaqtida bajarilmasligi tufayli vujudga kelgan chiqim xajmi quyidagicha aniqlanishi mumkin:

$$U = K * s * Q * t * t_{dv} / 365, \quad (4)$$

Bu yerda t - bitim va shartnomalarni bajarish vaqti;

K - qisqa muddatli bank kreditlarini to'lash (10%) ko'effitsienti;

t_{dv} - yuklarni yetkazib berish davri

Globalashuv sharoiti temir yo'llarning boshqa transport turlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlash zaruriyatini taqozo etmoqda, bu o'z navbatida har bir transport turining transport-tranzit salohiyatini oshirish va logistikani rivojlantirish imkonini beradi. Bu yo'nalishda davlat maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish masalasiga e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Temir yo'l transportini rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish, iqtisodiyotning umumiy transport



xarajatlarini kamaytirish, temir yo‘l transportining jadal va innovatsion rivojlanishi O‘zbekiston Respublikasining mavqeini ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Ushbu maqsadlarga erishishning yo‘llaridan biri transport koridorlari faoliyatini rivojlantirish va mamlakat tranzit salohiyatini oshirishdir. So‘nggi yillarda respublikaning tranzit salohiyatidan foydalanish darajasi pasaymoqda. Bizning fikrimizcha, tranzit tashuvlari hajmining kamayishiga asosiy sabablar quyidagilar hisoblanadi: alternativ transport koridorlari orqali tashuvlar hajmining oshganligi; O‘zbekiston hududida tranzit vagonlarning bojxona tekshiruvlarida birmuncha uzoq turishi va yetkazib berish muddatlarining uzoqligi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining tranzit salohiyatini kuchaytirish va O‘zbekistonning transport tashuvlari bozoridagi ulushini oshirish maqsadida «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ tomonidan Rossiya-Qozog‘iston-O‘zbekiston-Afg‘oniston-Pokiston transport koridorini qurish masalasi o‘rganilmoqda. Ushbu yo‘nalish 2018 yil 3-5 dekabr kunlarida Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston Respublikasi, Afg‘oniston Islom Respublikasi va Pokiston Islom Respublikasi temir yo‘llari vakillarining ko‘p tomonlama yig‘ilishida ko‘rib chiqildi¹. Ushbu koridor kelajakda Janubiy Osiyo mamlakatlarini temir yo‘l orqali Yevropa davlatlari va Xitoy bilan bog‘lanish imkonini yaratadi. Ostona shahridagi Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) ning navbatdagi sammitida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev Afg‘oniston Prezidenti Ashraf G‘ani va Pokiston Bosh vaziri Navaz Sharif bilan uchrashuvlarida quyidagi fikrni bildirdi: «O‘zbekiston Afg‘oniston va Pokiston bilan bundan keyin ham ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishni davom ettiradi»². Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev, O‘zbekiston Afg‘onistondagi vaziyatni siyosiy jihatdan tartibga solish, mamlakatda barqarorlikni ta‘minlash va uning iqtisodiyotini rivojlantirish tarafdori ekanini ta’kidladi. Mamlakatimiz Afg‘onistonga elektroenergetika, meva-sabzavot, neft mahsulotlari, minerat o‘g‘itlarni eksport qiladi, qurilish, energetika, konchilik va ta’lim sohalarida loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etadi. «O‘zbekiston temir

¹ <https://sptnkne.ws/p9HF>. Sputnik Uzbekistan / [Мобильная версия] / Экономика – Китай может присоединиться к проекту железной дороги в Афганистане. Узбекистан:10.04.2019г.

² <https://ria.ru/world/20170608/1496119229.html>. Ўзбекистон Республикаси Президенти Мирзиёевнинг 2017 йил Остона шаҳрида Шанхай Ҳамкорлик Ташкилотининг навбатдаги саммитида сўзлаган нутқи.



yo'llari» AJ tomonidan Xayraton-Mozori Sharif temir yo'l liniyasi qurildi. Mamlakatimiz yordami bilan Afg'onistonda ko'priklar qurildi, yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari, optik tolali kabellar va suv ta'minoti tarmoqlari barpo etildi.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra Afg'oniston-Pokiston o'rtasidagi o'rtacha savdo aylanmasi 1,5 mln.dollarga baholanmoqda³. Afg'oniston uchun Pokiston asosiy tranzit davlatlaridan biri hisoblanadi, shu o'rinda Pokiston uchun Afg'oniston nafaqat arzon tovarlar bozori, balki G'arbiy Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlariga chiquvchi tranzit hududi hamdir.

Pokistonning qo'shnisi bo'lgan Hindiston so'nggi yillarda kuchli iqtisodiy o'sishni ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda Hindistonning dunyodagi ikkinchi yirik eksportchi davlat ekanini hisobga olsak, bu yo'nalish bo'yicha transport koridorining tashkil etilishi bizning temir yo'llar uchun foydali va Yevropa yo'nalishi bo'yicha qo'shimcha tranzit yuk tashuvlarini ta'minlaydi.

Yevropa statistik ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Hindiston o'rtasidagi suv va avtotransport orqali tovar aylanmasi yiliga o'rtacha 31,6 mln.tonnani, Yevropa Ittifoqi va Pokiston o'rtasida esa 6,2 mln.tonnani tashkil etmoqda⁴. Ushbu ko'rsatkichlar ham ushbu yo'nalishning ahamiyatli ekanini ko'rsatadi. Taklif etilayotgan xalqaro transport koridorining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida:

- O'zbekiston temir yo'llari negizida aralash tashuvlarning yagona operatori prinsipi asosida ishni tashkil etish;

- Shanxay Hamkorlik Tashkiloti platformasida ko'rib chiqilayotgan koridorning transport jarayonida ishtirok etuvchi mamlakatlarni o'z ichiga oladigan Markaziy Osiyo temir yo'l transporti Kengashini tashkil etish maqsadga muvofiq;

- ushbu koridorda tranzit yuklarni tashish xarajatlarini kamaytirish maqsadida Peshovar – Mozori-Sharif – G'alaba uchastkasida to'lovni temir yo'l tarifi, ya'ni birlik tarif – 0,057 doll., miqdorida olish; Peshovar – Mozori-Sharif temir yo'l liniyasi



qurilgunga qadar, ushbu yo‘nalishda mavjud avtomobil yo‘llaridan foydalanib tashuvlarni amalga oshirish taklif etiladi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 7.02.2017 й. ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1.02.2019 й. ПФ-5647-сон «Транспорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 6.03.2019 й. ПҚ-4230-сон «Юк ва йўловчи ташиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Мирзиёевнинг 2017 йил Остона шаҳрида Шанхай Ҳамкорлик Ташкилотининг навбатдаги саммитида сўзлаган нутқи. <https://ria.ru/world/20170608/1496119229.html>.
6. Барановский Ст. Индоволжская железная дорога // Нива, 1874, №34, б. 536-539. http://www.ruzgd.ru/indiya_volga.shtml.
7. Дадабоева З.С., Файзиходжаева М.Л. Пути повышения транзитного потенциала железных дорог Узбекистана // «Ёш илмий тадқиқотчи» Бакалавриат, магистратура талабалари ва стажер-изланувчи-тадқиқотчиларнинг XIV институтлараро илмий-амалий конференцияси. – Т., 2016. – Б. 15-16.
8. Замаева Н. Насколько тесно могут сблизиться Афганистан и Пакистан в 2015 г.? // Новое восточное обозрение. – Москва, 17.06.2015г.
9. Гуламов А.А., Дадабоева З.С. Мамлакат транзит салоҳиятини баҳолаш масалалари // «Ёш илмий тадқиқотчи» Бакалавриат, магистратура талабалари ва стажер-изланувчи-тадқиқотчиларнинг XVII институтлараро илмий-амалий конференцияси. – Т., 2020.
10. Гуламов А.А., Дадабоева З.С. Проблемы развития железнодорожного транзитного потенциала Республики Узбекистан // UNIVERSUM: Технические науки. Международный научный журнал. – 25.05.2020.– №5 (74).



11. Ибрагимов У.Н. Марказий Осиё мамлакатларига транзит юklarни темир йўл орқали ўтказишни такомиллаштириш, магистрлик диссертацияси, Ўзбекистон Республикаси Президенти қошидаги Давлат ва жамият қурилиши академияси. – Тошкент, 2010.
12. Ибрагимов У.Н., Абдуалибеков А.Т., Дадабоева З.С. Пути повышения транзитного потенциала железных дорог Узбекистана» // Научно-практический журнал «Экономика и менеджмент инновационных технологий». – Москва, 2017. – №10 (73). – Б.92-94.
13. ИМЭК ЦАРЭС // Измерение и мониторинг эффективности коридоров годовой отчет, 2016. – Б. 10-14.
14. ИМЭК ЦАРЭС // Измерение и мониторинг эффективности коридоров годовой отчет, 2018. – Б. 66-69.
15. Лapidус Б.М., Мачерет Д.А.. Макроэкономическая роль железнодорожного транспорта // Теоретические основы, исторически тенденции и взгляд в будущее. – М.: КРАСАНД 2014. – Б. 10-13
16. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫЙ ТРАНЗИТНЫЙ ТАРИФ МТТ (1 январ 2020 йил ҳолатига ўзгартириш ва қўшимчалар билан). – Б. 79, 101).
17. ОТЧЕТ по научно-исследовательской работе ЕАЗ-ФК-0-14573-ЕАЗ-009 «Исследование путей пропуска транзитных поездов через территорию Узбекистана, обеспечивающее рост использования транзитного потенциала железной дороги республики».
18. Rasulov M., Ibragimov U., Mirakhmedov M., Rizaev A., Central Asian transport corridors and prospects of Uzbekistan's further integration to the global transport network // 7th International Symposium for Transportation Universities in Europe and Asia // Dalian Jiaotong University. – China, 2014. – Б. 25-30.
19. Файзиходжаева М.Л., Дадабоева З.С. Экономическая эффективность инвестиционного развития железнодорожного транспорта. // «Ёш илмий тадқиқотчи» Бакалавриат, магистратура талабалари ва стажер-изланувчи-тадқиқотчиларнинг XVII институтлараро илмий-амалий конференцияси. – Т., 2.04.2019.



20. Файзиходжаева М.Л., Ибрагимов У.Н., Дадабоева З.С. Привлечение дополнительного объёма транзитных грузов путем формирования конкурентоспособных транспортных коридоров // Ресурсосберегающие технологии на железнодорожном транспорте. – Т., 2015.
21. <http://www.osjd.org> (Организация сотрудничества железных дорог).
22. <http://www.uzrailway.uz> («Ўзбекистон темир йўллари» АЖ).
23. http://www.hazar.org/analizdetail/анализ/the_importance_of_baku_tbilisi_kars_railway_for_the_development_of_interregional_trade_396.aspx.
24. http://www.kazlogistics.kz/ru/union/members_union/valid/aktau_port.php?sphrase_id=2052.
25. http://www.kazlogistics.kz/ru/media_center/news/detail.php?id=2017&sphrase_id=2052